

# “Uyat” Konseptining Sotsiologik Tahlili

*Maxmudova Muniraxon Badriddin qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Uyat hissi inson o‘zini anglash rivojlanganda, “Men”i rivojlanib bo‘lganidan so‘ng moddiy tomondan ifodalana boshlaydi hamda uning butun hayoti davomida turli darajalarda, turli tezlikda va turli davomiylilikda o‘z aksini topadi. Uyat insondan ajratib bo‘lmaydigan asosiy tuyg‘ulardan biri sanaladi, aynan uyat sababli inson o‘zligini topadi, uning shaxsiyati shakllanadi. Barcha uchun uyatning psixologik xususiyati umumiylikni tashkil etadi, ammo uning sotsial jihatlarini jamiyat vakillarining yoshi, jinsi, lavozimi va boshqa qator belgilari nuqtayi nazaridan farqlanadi. Maqolada “uyat” konseptining sotsiologik o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** konsept, uyat, yosh davrlari, bolalik, o‘spirinlik, qarilik, gender, noverbal elementlar.

Uyatning ifodalanishi birinchi navbatda inson ijtimoiy kelib chiqishi bilan aloqada. Bu kabi jihat uning yoshida, jinsida, lavozimida o‘z aksini topadi, masalan, yangi kelin, nafaqadagi shaxs, uyat hissinin kuchaytiruvchi va siqilishga olib keluvchi kambag‘allik. Ushbu sanab o‘tilgan xususiyatlar esa uyatning turi, tezligi va davomiyligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bolalik, o‘spirinlik, qarilik – yosh bosqichlari uyat bilan bog‘liq shaxsiyat xarakterlarining turlichaligini o‘zida ifoda etadi, ya‘ni bulardan birinchisida uyat tuyg‘usi to‘la rivojlanmagan bo‘lsa, ikkinchisida eng yuqori darajani, uchinchisida esa o‘rtacha darajadagi holatni aks ettiradi. Erkaklar va ayollarda uyatning yuzaga chiqishi bir qancha differensial va integral belgilarga ega. Uyat hissiga tarbiya, aksariyat hollarda esa sotsiologik status katta ta‘sir o‘tkazadi, uyat insondagi yoqimsiz holatlar bilan, uni qo‘zg‘atuvchi vaziyatlar bilan bog‘liq. Ushbu yoqimsiz holatlar I.Gofman tomonidan “stigma” deb atalgan [1].

Uyat hissi aniq bir shakllarda yuzaga keladi, uning ifodalanishi asosan inson xarakter xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Mana shunday xususiyatlar sotsial xususiyatlardir. Ular inson nimadan, qancha va qanday intensivlikda uyalishini aniqlashimizda yordam beradi. Turli vaziyatlar uyat hissinin qo‘zg‘atishda ishtirok etadilar. Jamiyatning ma‘lum guruhlari uchun uyat tuyg‘usi paydo bo‘lishi yuqori darajani tashkil etadi. Shunday guruhlarni ularning yosh va jins xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilishimiz zarur.

## Yoshning “uyat” konseptini ifoda etishdagi o‘rni.

Inson o‘z yoshidan kelib chiqqan holda turli uyat bilan bog‘liq vaziyatlarga duch keladi. Bolalik va o‘spirinlik davrlarida shaxsiyat o‘zgarishi krizisi yuz beradi, natijada uyat paydo bo‘lishi uchun sharoit paydo bo‘ladi. Bu esa uyatning uch turi shakllanishiga olib keladi:

1. Jismoniy;
2. Psixik;
3. Sotsial [2].

Uyat hissi yosh davrlarining barchasida turli darajadadir, buning asosiy sabablaridan biri esa inson shaxsiyatining rivojlanishi. Inson shaxsiyatining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, o‘ziga ishonchsizlikning kuchayishi natijasida uyat hissining intensivligi va chastotasi ham o‘sib boradi.

Bolalar va o‘spirinlarning “Men”i o‘smirlarga nisbatan to‘la rivojlanmagan bo‘ladi. Ular hali hanuz etiket qoidalarini yoki o‘z millatlariga xos “yozilmagan qoidalar” haqida ma‘lumotga ega emaslar, mavzu asosida so‘zlash yoki vaziyatga qarab, baho berganicha gapirish layoqati ular uchun hali hanuz

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti



begona. Insonga xos boshqa kompetensiyalar ham bolalarda shakllanmagan bo‘lib, ular boshqarib borilmasa, uyat hissining bolalarda yuzaga chiqish darajasi o‘shib boradi va bolalarni uyatchan bo‘lib o‘shishlariga olib keladi. Shuningdek, kun davomida bolalar va o‘spirinlar o‘zlariga notanish bo‘lgan vaziyatlarga tushib qoladilar va bunday hollarda qanday xatti-harakat qilish kerakligi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lmaydilar, shu sababli ular urinish va xato qilish qolipi asosida harakatlanadilar. Natijada urinishlarining ko‘p qismi to‘g‘ri bo‘lmaydi va shaxsiyat krizisi yuzaga keladi. O‘zbeklarda bolalar ko‘pincha o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olmaydilar, chunki ularga kattalarning gapiga aralashmaslik, ularning gapini bo‘lmaslik uqtiriladi. Natijada bola tabiatan uyatchan o‘sadi va o‘zi uchun qulay joy – “ona etagi”dan boshqa hech joyga borishni xohlamaydi. Uyat hissi bola uchun katta psixologik zarba bo‘lib, ko‘p hollarda berkinib olish, boshini egish, yuzlarini berkitish kabi noverbal harakatlar bilan ifodalanadi.

*“U ensasi qotganday bo‘lib Muxtorga yuzlandi:*

*– Nega baqrayib turibsan? Cho‘milmoqchimisan? Qani, kel!*

*Bola uyalib oyisiga qarab qochdi.” (Pirimqul Qodirov)*

Shuningdek, boshni yelkalar orasiga qistirib olish, qo‘li bilan yuzini to‘shib olish ham uyat konseptini ifodalovchi noverbal vosita vazifasini bajaradi:

*“Bola boshini yelkalari ichiga oldi. Yuzini loy kaftlari bilan pana qildi.” (T.Murod).*

Tana a‘zolarini to‘la boshqara olish kompetensiyasi yosh bolalarda butunlay rivojlanmagan, ular o‘z tanasini kattalardek xohlagan “asbob”ga aylantira olmaydilar. Ammo o‘spirinlik davrida ham yuzaga keluvchi qo‘pollik uyatni keltirib chiqaradi, chunki o‘spirinlik davrida bolaning tanasi katta o‘zgarishlarga uchraydi, unga oldin bema‘ni tuyilgan xatti-harakatlar o‘zining boshidan o‘ta boshlaydi va o‘ng‘aysiz holatga tushib qolishiga sabab bo‘ladi. O‘spirinlikda tana “yangilanadi”. T.Stixe o‘spirinlik davridagi tana bilan bog‘liq bunday o‘zgarishlarni quyidagicha ta‘riflaydi: “Men o‘zimni “yangi” tanamda tayyor emasdek, to‘liq bo‘lmagandek his qilardim. Bu tana juda ham qaysar edi, doimo charchoqni his qilardim va terdan doimo nam edi. Aynan shu holat meni baholash obyektiga aylantiryapti, deb o‘ylardim. Ushbu tanada hali mening psixikam yashamas edi, u o‘zini dastlab barchaga begona joydek tuyuluvchi uyda yashayotgandek his qilardi [3, 53].” Bunday o‘ziga ishonmagan tananing mavjudligi esa har qanday insonda uyat hissini yuzaga chiqarishi tabiiy holdir, chunki inson o‘zini kuzatuvlar obyektiga sifatida qabul qilib oladi, zero, unga hech kim e‘tibor bermasada. Bolalar hamda o‘spirinlarning atrofidagi madaniyat bilan to‘la tanish emasligi natijasida ham uyat hissi paydo bo‘lishi mumkin. Aristotel ta‘kidlab o‘tganidek, uyat yosh davrining dastlabki ikkala bosqichlariga ko‘proq xos bo‘ladi, o‘smirlarda esa pastroq darajani tashkil etadi. Chunki o‘smirlar nima yaxshi va nima yomon ekanligini biladilar va o‘zlarini shulardan kelib chiqqan holda tutadilar, shuning uchun ham uyatli vaziyatlarga kamroq tushadilar [4, 143]. Agar bolalik davrida kompetensiyalar hali mavjud bo‘lmasa, qarilik davrida ular allaqachon mavjud emas va buning natijasida esa jismoniy yetishmovchiliklar, shaxsiyat krizisi va uyat hissi paydo bo‘lishi mumkin. Balki qarilik davri bolalik va o‘spirinlik davridan ham ko‘proq tarzda uyat hissi tuyuluvchi davrdir [5]. Buning sababi esa qarilik davrida yoshlikda ahamiyatli bo‘lgan sog‘lik, jismoniy holat, chiroy, kuch-quvvat, jamiyat tomonidan qabul qilinish kabilarning yo‘qolishidir, xotiraning susayishi, tanadagi doimiy og‘riq, boshqalarga yordamiga muhtojlik paydo bo‘ladi va bularning barchasi jamlanib insonda o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni, o‘zidan hisob so‘rashlikni, bu bilan esa ichki uyat hissini orttiradi. Chunki jismoniy, psixik va ijtimoiy jihatdan bu inson oldingidek emas hamda o‘z “ideal”iga to‘g‘ri kelmay qoladi.

Yevropa madaniyatida yoshi kattalarni hurmat qilish, ularga kerakli tarzda qayg‘urish bizning o‘zbek millati urf-odatlaridan ancha farq qiladi. Yevropada yoshi ulg‘aygan kishilar “ortiqcha” jamiyat a‘zosi sifatida qaraladi, jamoat joylarida qariyalar shu sabab ko‘proq uyat hissini tuyishga moyildirlar. Ammo o‘zbek madaniyatida ota-onani, bobo va buvilarni hurmat qilish, ularga kerakli e‘tiborni berish va ularga qulayliklar yaratib berish odatiy holdir. Xalqimizda esa “Qarisi bor uyning parisi bordir” degan maqolning mavjudligi ham bejiz emas. Bizning madaniyatda otaxon va momaxonlarimizni uyaltiruvchi holat ularning o‘zlari bilan bog‘liq bo‘lmaydi, balki farzandlarining, qarindoshlarining



xatti-harakatlari hamda muammolariga aloqadordir. Shuningdek, ko‘plab osiyo millatlari madaniyatida ham yoshi ulug‘lar hayotiy tajribaga ega bo‘lgan shaxslar sifatida alohida hurmatga sazovor bo‘ladilar. Demak, yuqoridagi R.E.Gergilovning uyat hissi qarilik davrida yuqori bo‘ladi, degan fikri o‘zbek madaniyati uchun xos emasdir.

### **Genderning “uyat” konseptini ifodalashdagi o‘rni.**

Inson uyalishi sabablari gender jihatdan ham keskin farq qiladi. Erkak va ayol antinomiya mavjudligining o‘ziyoq buning bir isbotidir, Ular bir-birlaridan nafaqat jismoniy jihatdan balki psixik jihatdan ham farq qiladilar. Erkaklar va ayollarga jamiyat tomonidan qo‘yiluvchi talablar turlicha, natijada esa erkak stereotipi va ayol stereotipi yaraladi. Mana shunday stereotiplarga to‘g‘ri kelmaslik esa insonda uyat hissini kuchaytiradi. O‘zining emas, balki o‘zgalar fikriga asosan yashash ayrim o‘zbeklar kundalik hayotida hali hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Aynan ijtimoiy normalarga bo‘ysunishlik oqibatida “Odamlar nima deydi?”, “Nima degan odam bo‘ldim?”, “Har xil odamlar bor” kabi o‘y-fikrlar, o‘z-o‘zini so‘roqqa tutish ham oddiy hol. Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloq qoidalarini xohlab-xohlamay buzishlik uyat hissini qo‘zg‘atuvchi vaziyatlardan biridir. O‘zbeklardagi “haqiqiy erkak kuchli bo‘ladi” yoki “ayol kishi ojiza bo‘ladi” kabi stereotiplar erkaklar va ayollarda o‘ziga, o‘z shaxsiyatiga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi.

Uyat hissining ifodalashga bo‘lgan munosabat ham erkaklar va ayollarda bir xil emas. O‘zbek madaniyatida ayollar o‘zlarining his-tuyg‘ulari to‘g‘risida, shu o‘rinda hayo qilganliklari haqida, so‘zlashga ko‘proq moyildirlar, erkaklar uchun esa uyat hissi ko‘proq or-nomus bilan bog‘liq va agressivlik bilan chambarchas holda yuzaga chiqadi. Ayollarda uyat hissi qayg‘urishga olib kelsa, erkaklar uyatning o‘rnini boshqa tuyg‘u bilan yopib yuborishga harakat qiladilar. Uyat hissi ayollarga xos fenomen tarzida qaralishi mumkin, chunki o‘zbeklarda ayol kishi deganda, albatta, “ibo-hayo” so‘zlari birinchi o‘rinda assotsiatsiya bo‘ladi, ammo erkak kishida uyat mavjud emas deyish ham noto‘g‘ridir. Uyat har ikki jins vakilida o‘zining asosiy jihatlarini yuzaga chiqara oladi va ko‘p hollarda uyatning voqelanishi, uning qo‘zg‘atuvchilari har ikki jins vakili uchun ham bir xil ssenariyni tashkil etadi. Uyat hissining yuzaga kelishiga quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:

- Kamsitilish;
- Ayb ish qilish;
- Jamoa oldida xato qilish;
- Vijdon azobi;
- Axloq qoidalariga zid harakat qilish;
- O‘zining qulaylik zonasidan tashqariga chiqish;
- Aldash, yolg‘on gapirish;
- Ma‘lum vaziyatda rost so‘zlash;
- Nutq jarayoniga mos bo‘lmagan so‘zlarni gapirish;
- Tabu, varvar, vulgar leksikadan foydalanish, ularni eshitish;
- Aksent, noto‘g‘ri talaffuz qilish;
- Tug‘ma duduqlanish;
- Birov tomonidan maqtalish;
- Xushomad qilinishi;
- Sovg‘a berish, sovg‘a qabul qilish;
- Iliq so‘zlar aytish, eshitish;
- Muhim uchrashuv, tadbirda nutq so‘zlash, rol o‘ynash va h.k. oldidan hayajonlanish;
- Uyat hissini his qilayotganda insonda quyidagi harakatlar ko‘rinadi:



- Bir yerda o‘tira olmaslik;
- Ko‘zlarini olib qochish;
- Bosh egib turish;
- Ovozini pasaytirish;
- Yuzlarida qizarishning paydo bo‘lishi;
- Duduqlanish, so‘zlar topa olmaslik.

Yuqorida sanab o‘tilgan uyat hissini uyg‘otuvchi birliklar va elementlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Insoniyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me‘yor qoidalariga zid ish qilish natijasida yuzaga kelgan uyat hissi.
2. O‘z millati va qadriyatlari, madaniyatida belgilangan me‘yorlardan tashqariga chiqish natijasida yuzaga kelgan uyat hissi.
3. Insonning o‘z psixologik holati hamda dunyoqarashidan kelib chiqqan holda axloq qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakat qilish natijasida yuzaga kelgan uyat hissi.

Erkaklar va ayollardagi uyat hissining xatti-harakatlar orqali ifoda qilinishi ham turlichadir. Masalan, bosh bilan bog‘liq harakatlarni tahlil qilsak. Bosh inson organizmining o‘ylovchi va fikrlovchi aqli joylashgan asosiy tana a‘zosi sanaladi. Shunday ekan, boshning kommunikatsiya jarayonidagi o‘rni muhim. Boshning turli harakatlari nutq kontekstiga bog‘liq holda bo‘ladi va u o‘z ma‘no qirralarini shu jarayondagina namoyon etadi. Boshning qanday pozitsiyada turganligi inson holati haqida juda ham ko‘p ma‘lumot uzatadi. Boshning egikligi uning uyalayotganidan darak beradi. *Boshini egmoq* kinemasi ostida birgina harakat emas, balki ma‘lum bir emotsiyani – *uyatni* ifodalovchi ma‘no ham mavjud. Erkak va ayollarda uyat tuy‘gusini aks ettiruvchi eng keng tarqalgan harakatlardan bir boshini egmoq kinemasidir:

*“U uyalganini sezdirgisi kelmay, boshini egdi-yu, o‘z tizzalariga ko‘z tikdi.” (P.Qodirov)*

*Yuzni berkitmoq* kinemasi esa xususiyoq bo‘lib, ko‘proq ayollar xatti-harakatida aks etadi. Uning mazmuni ostida ham uyat konsepti bilan bog‘liq ma‘noni anglashimiz mumkin. Ammo ushbu ma‘no ham yuqoridagi birliklar singari ma‘lum kontekstda yuzaga kelishi bilan xarakterlanuvchi xususiyatga egadir:

*“Yuzlarimni ushlab-ushlab kuldim, yuzlarimni berkitib-berkitib kuldim.” (T.Murod)*

*Yerga qaramoq* paralingvistik birligi va *qizarmoq* psixoparalingvistik vositalari ham *uyat* konsepti atrofiga boshqa ma‘no-mazmunlar bilan birga birlashadi va ikkala jins vakillarida birdek yuzaga chiqadi:

*“Uyalib yerga qaradi-yu, lekin qizarib ketgani, o‘ftobda kuyganidan yaltirab qolgan yuzlarida bilinmadi” (M.Tilolova)*

Uyat konseptini ifodalovchi paralingvistik vositalar har doim ham u bilan bir paradigmaga uyushmaydi. Ya‘ni, noverbal holatda uyat hissining yuzaga chiqishi nutq momentida sodir etilayotgan inson xatti-harakati, holati, o‘zining tutishi kabilar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayol kishilarning ayrim harakatlari yordamida biz ularning uyat hissini tuyayotganliklarini bilib olishimiz mumkin. Ular masofa, boshni egish, ko‘zni olib qochish, harakatning tezligi, ovozning baland-pastligi, yuzini berkitish singari turli vaziyatlarda yuzaga chiqadi.

Masalan, *“Oyisha begim azbaroyi tortinganidan dasturxonning Boburdan eng uzoq chetiga o‘tirdi.” (P.Qodirov)* Ushbu misolda masofa uyat konseptini ifodalashda xizmat qilgan.

Uyatning eng yuqori ko‘rinishi tezlik bilan berkinib olish hissini uyg‘otadi. Biz badanimizni butunlay burib olamiz, ayniqsa, yuzimizni ko‘rsatmaslikka harakat qilamiz [6].

*“Qiz go‘yo endi o‘ziga keldi, «lip» etib, boshini devor ortiga oldi-yu, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.” (P.Qodirov)* Qizning tezlik bilan o‘zini devor ortiga olishida ham unda uyat hissining uyg‘onganligi



haqida axborot uzatiladi. Yozuvchi bu harakat orqali o‘zbek millati qizlari uchun xos bo‘lgan hayo hissini ifodalab bergan.

Aksar hollarda uyat hissi bilan bog‘liq holatlar inson ko‘zida aks etadi. U aybdor ekanligidan, noqulay vaziyatga tushib qolganligidan ko‘pincha suhbatdoshi ko‘zlaridan nigohini, o‘zini olib qochishga tirishadi, ko‘zini yerdan uzmaydi. Bu kabi noverbal birliklar ikkala jins vakili uchun ham integraldir:

*“Bobur onasining so‘zini yerda qoldirganidan xijolat bo‘lib, Qutlug‘ Nigor xonimning ko‘ziga tashlanmaslikka tirishardi.” (P.Qodirov)*

*“Polvon achchiqlanmadi, qaytaga – xo‘rligi keldi, xotini o‘ragan bir so‘mlik gardi ro‘moli uning kir unnagan ko‘ylagi sabab bo‘ldimi yoki qo‘lidagi cho‘ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o‘zini nomard, noinsof sezdi.” (M. Muhammad Do‘st)*

*“Qosimbek boyadan beri ko‘zini Boburning yalang oyoqlaridan olib qochmoqda edi.” (P.Qodirov)*

Ortga chekinmoq fe‘li semasida ham o‘ng‘aysizlik sememasi mavjuddir. Ushbu harakatni bajarish orqali adresant adresatga noqulay vaziyatda ekanligi haqida axborot beradi:

*“– Amirzodam, men sizni tanimabmen! – Yor Husaynbek qo‘lida qilichi bilan bir qadam orqaga chekindi.” (P.Qodirov)*

Uyat his qilgan insonning o‘zini tutishi, qanday so‘zlardan foydalanishi, qanday xatti-harakatlar qilishi ham turlicha bo‘lib, kengroq tahlilni talab qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “uyat” konseptining ifodalanishi barcha xalq-elatlarda bir-biridan farq qiladi. Bir jamiyat a‘zosi bo‘lgan kichik jamoalarda ham o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. Xususan, “uyat” konsepti voqelanishining farqi jamiyat a‘zolarining hayotiy tajribalari, gender xususiyatlari, jamiyatda tutgan o‘rni kabilarda o‘z yorqin ifodasini topadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. E. Goffman. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. Chapters 1 and 2 (3-6). – New York: Prentice-Hall, 1963.
2. Гергилов Р. Е. Стыд как множественный феномен: теоретико-методологический анализ // Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перемены. 2016. № 4. С. 1—19.
3. Ziehe Th. Nackt und bloß der Entzauberung entgegen. Erinnerungen an einen Szenenwechsel. – Berlin, 1984.
4. Аристотель. Никомахова этика. Сочинения в четырёх томах. Т. 4. – М.: Изд. Мысль, 1983.
5. Гергилов Р.Е. Стыд: социологическая перспектива // Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перемены. 2017. № 2. С. 115–128.

